**Buxoro Davlat Universiteti, «Turizm va mehmonxona xo'jaligi» kafedrasi o'qituvchisi N.U.Axrorova, "Mehmonxona xo'jaligini boshqarish va tashkil etish" bakalavr yo'nalishidagi talabalari uchun "Mehmonxona interyeri va landshafti" fanidan kurs ishi yozish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. B.: BuxDU, 2022 yil, 11 bet.**

**Mazkur uslubiy ko`rsatma nashri uchun BuxDU o`quv-metodik kengashi ruxsat bergan (2022-yil 25 noyabrdagi 1-son yig`ilish bayonnomasidan ko`chirma).**

**TUZUVCHI:**

**N.S.Ibragimov** — **"Turizm va mehmonxonaxo'jaligi" kafedrasi mudiri, i.f.d., dotsent**

**N.U.Axrorova** — **BuxDU, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasi o'qituvchisi.**

***TAQRIZCHILAR:***

1. **H.R.Hamroyev – BuxDU, «Turizm va mehmonxona xo`jaligi» kafedra professori, i.f.n.**
2. **S.U.Tadjieva – BuxDU, «Marketing va menejmenti» kafedrasi dotsenti**



# KIRISH

Mamlakatimizda turizm ohasiga mustakillikning dastlabki kunlaridanoq katta e' tibor qaratildi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy- huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim meyoriy hujjatlar qabul qilindi va bu ish hozirda ham davom etmoqda. G'arb davlatlarida turizmning asosiy infratuzilmasi hisoblagan mehmonxona xo'jaliklarini boshqarish bo'yicha ko'p yillik tajriba yig'ilgan. Mehmonxona korxonalari faoliyatida xorij tajribasini o'rganish mehmonlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda katta rol o'ynaydi. Xodimlarzamonaviy xizmat darajasiga mehmonlar tomonidan qanday talab qo'yilishi haqidatasavvurga ega bo'lmasa, ulardan mijozlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatishlarini talab qilish murakkabdir. Bugungi kunda bizga jahon talablariga javob beruvchi turizm sohasini rivojlantirishning milliy modelini yaratish bo'yicha takliflar kiritilmoqda.

So'nggi yillarda xizmat ko'rsatish sohasida turizm industriyasi, davlatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin egallab bormoqdaki, uning izchil rivojlanishida mehmonxona industriyasi ham takomillashib bormoqda. Mehmonxonalar industriyasining rivojlanishi uchun zamonaviy mehmonxonalar va yirik turistik majmualarni barpo etish, ularda yuqori darajali xizmat ko'rsatishni ta'minlash, talabgor malakali kadrlarni tayyorlash kabi turli vazifalarni hal etish talab qilinadi.

"**Mehmonxona interyeri va landshafti**" fani bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda o'z navbatida ushbu fan bo'yicha bajariladigan kurs ishining ahamiyati albatta salmoqli o'ringa ega. Talabalar kurs ishini bajarishda ilmiy, ijodiy yondashib fan haqida chuqurroq puxta bilimga ega bo'lishadi.

Ushbu qo'llanma 5610200 - "Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" bakalavr yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, kurs ishini tayyorlash, rasmiylashtirish hamda himoya qilishni tartibga solishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

## KURS ISHINING MAVZUSINI TANLASH VA UNI BAJARISH

Talaba kurs ishi mavzusini tanlashda dastlab shu fan bo'yicha professor-o'qituvchining ma'ruzalarini diqqat bilan tinglab, hozirgi zamon iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni chuqur o'rganib chiqishi lozimdir.

Kurs ishi mavzusini (2-ilova) talaba o'zi ixtiyoriy ravishda tanlaydi.

Kurs ishining rahbari sifatida kafedraning tajribali o'qituvchilari kafedra tomonidan tayinlanadi.

Kurs ishini bajarishda mazkur qo'llanmada ko'rsatilgan adabiyotlar ro'yxati (5-ilova) bilan cheklanmasdan, ayrim masalalarni batafsil bayon qilish imkonini beradigan qo'shimcha adabiyotlardan ham foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Mehmonxona interyeri va landshafti» fanidan kurs ishini tayyorlash va himoya qilish yo`nalishning o`quv rejasiga muvofiq 7-semestrida amalga oshirilishi ko`zda tutilgan. Uni tayyorlash quyidagicha:

1. Kurs ishi mavzusini tanlash va tasdiqlatish (2-ilova)
2. Kurs ishi mavzusi bo'yicha ilmiy adabiyotlar va boshqa materiallarni to'plash
3. To'plangan materiallarni o'rganish va natijalarni asoslash
4. Kurs ishini bajarish va uning tarkibiy qismlari bilan tanishib chiqish (1-ilova)
5. Kurs ishini topshirish usulini tanlash
6. Kurs ishini tayyorlash
7. Kurs ishini himoya qilish

Kurs ishini tayyorlash shakli 2 xil bo'lib, talaba ixtiyoriy ravishdan ikkisidan birini tanlaydi:

- ✓ esse;
- ✓ videorolik.

Muallif ishning asosiy natijalari, xulosa va takliflari bildirilgan taqdimot asosida himoyani amalga oshiradi. Chiqish vaqti – 5 minut. Ishning samaradorligini va o'zlashtirish ko'rsatkichini oshirish maqsadida ko'rgazmali materiallardan foydalanilishi maqsadga muvofiq.

1-ilova

### KURS ISHI TARKIBIY QISMLARI VA BAJARILADIGAN ISHLAR

| | Kurs ishi tarkibiy qismlari | Bajariladigan ishlar | Kurs ishi hajmi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | esse | videorolik |
| | Titul (1) | | | |
| | Mundarija (1) | | | |
| 1. | Tanlangan mavzu doirasida umumiy ma'lumot | Tanlangan mavzuni ilmiy-nazariy asoslagan holda umumiy ma'lumot berish, mavzuga oid asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini yoritib berish | 300-500 so'z | 2 minut |
| 2. | Tanlangan mehmonxona interyeri va landshaftining tavsifi | Tanlangan mehmonxonaning xususiyatidan kelib chiqqan holda mehmonxona bo'limlari (mehmonxona eksteryeri, mehmonxona jamoat joylari va boshqa bo'limlar, nomer fondlari, har bir nomer turlari)ni rejalarga ajratib interyer va landshaftiga ***ilmiy va ijodiy*** yondashuv asosida tavsif berish va bunda yuqorida aytib o'tilgan mezonlar asosida yoritib berish (2) | 2000-2200 so'z | 7-8 minut |
| 3. | Xulosa va tavsiyalar | Tanlangan mehmonxona interyer va landshaftini yanada takomillashtirish maqsadida kerakli amaliy tavsiyalar batafsil izohlab berish | 500-700 so'z | 2-3 minut |
| 4. | Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (1) | | | |
| 5. | Ilovalar (agar mavjud bo'lsa) | | | |
| | Jami | | 2800-3400 so'z | 11-13 minut |

(1) - Titul varag'i, mundarija va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati har ikkala shakl uchun mavjud bo'lishi kerak.

(2) - Bunda tavsif berilayotganda kurs ishining originalligi, ijodiy va ilmiy yondashilganligi inobatga olinadi va shuningdek, tavsif berilayotgan obyektlarda mehmonxona interyeri uslublari, ranglar va ularning qo'llanilishi, dekorativ aksessuarlar, mebel va jihozlar, yoritish tizimlari, landshaft usullari kabilar batafsil ilmiy hamda ijodiy yoritilib berilishi kerak bo'ladi.

## KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLARNI O'RGANISH

Kurs ishini yozish va rasmiylashtirishga qo'yiladigan asosiy talablar matnni bayon etishdagi ilmiy til va rejalar o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlik bo'lishidir. Kurs ishining tarkibiy tuzilishi tadqiqotning asosiy mazmuni va maqsadini yoritishga qaratilgan bo'lishi zarur. Kurs ishi savollari o'rtasidagi mantiqiy ketma-ketlikni buzadigan, uning umumiy mazmun va natijalariga aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar kurs ishi matniga kiritilmasligi shart. Ayrim holatlarda kurs ishida katta ahamiyatga ega bo'lmagan yoki ishning hajmiga ta'sir qiladigan manba va ma'lumotlar ilova shaklida beriladi. Kurs ishining birinchi qismida berilgan mavzu ilmiy jihatdan keng va to'liq yoritilib berishi zarur bo'ladi, ikkinchi qismda esa kurs ishi mavzusidan kelib chiqqan holda tanlangan mehmonxonaning interyeri ilmiy yondashuv asosida tavsiflab berilishi kerak bo'ladi, shuningdek, tavsifni qismlarga ajratishda ijodiy yondashuv talab etiladi. Kurs ishining umumiy hajmi esse shakli uchun 2800-3400 so'zdan iborat bo'lib, *bosma shaklida* bo'lishi kerak va videorolik shakli uchun esa 11-13 daqiqani tashkil etadi va u *elektron* tarzda taqdim etilishi kerak bo'ladi. Shuningdek, muhim jihat shundaki, videorolikda mehmonxona interyeri talaba o'zining ovozi bilan tavsiflab berilgan bo'lishi kerak. Videorolik shaklini tayyorlash jarayonida istalgan video tayyorlovchi dasturlardan foydalanishlari mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATINI RASMIYLASHTIRISH

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** kurs ishida o'z ifodasini topishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlarni guruhlashning eng keng tarqalgan usuli – bu alifbo tartibida joylashtirishdir. Kitob va maqolalar muallif familiyasi yoki kitob, maqola nomi (agar muallifi ko'rsatilmagan bo'lsa) orqali alifbo tartibida joylashtiriladi. Shundan so'ng nashr etilgan joy va sana ko'rsatiladi. Agar jurnal materiali ko'rsatilsa, muallif familiyasi, ismi, otasining ismi, maqola nomi, jurnal nomi, nashr yili

## KURS ISHLARINI BAHOLASH TARTIBI

Kurs ishini baholash mezoni talabalarda ilmiy izlanishga qiziqish uyg'otish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qilishi zarur.

Kurs ishlari sifat darjasiga qarab tabaqalangan holda baholangani maqsadga muvofiqdir. Reyting tizimi bo'yicha talabaning kurs ishini 5 baho tizim asosida baholanadi.

| № | Belgilangan ball | Baholash mezonlari |
|---|---|---|
| 1 | "A'lo"- "5" baho<br>90-100 ball | Rejadagi bo'limlarning mazmuni ijodiy yondashilgan holda yoritilgan bo'lsa, foydalanilgan adabiyotlar va ma'lumotlarga snoskalar (ilovalar) berilib, adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan bo'lsa va ish bo'yicha berilgan savollarga aniq va to'liq javob berib, statistik ma`lumotlarni to`g`ri tahlil qilib o'zining fikrini erkin bayon etsa hamda original va ijodiy yondashuv asosida tayorlangan ishlarga «a'lo» baho qo'yish mumkin. |
| 2 | "Yaxshi"<br>"4" baho<br>70-89 ball | Agar rejadagi mehmonxona bo'limlarining faqat bittasiga to'liq tavsif berilmagan bo'lib, qolgan bo'limlari tavsifi berilgan bo'lsa, himoyada talabaning javob berishiga qarab «yaxshi» baho qo'yish mumkin. |
| 3 | "Qoniqarli"<br>"3" baho<br>60-69 ball | Rejadagi mehmonxona bo'limlarining bitta yoki ikkitasining tavsifi mazmuni yoritilib, qolganlariga javob berilmagan bo'lsa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yo'q, ilovalar berilmagan va boshqa shu kabi kamchiliklar bo'lsa, ko'rsatilgan kamchiliklar himoyagacha bajarilsa, talabaning javobini hisobga olib bu kabi ishlarni «qoniqarli» baholash mumkin. Agarda talaba yuqoridagi kamchiliklarni yozma ravishda bartaraf etmasa, kurs ishi «qoniqarsiz» baholanadi. |
| 4 | "Qoniqarsiz"<br>"2" baho<br>0-59 ball | Kurs ishida quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, «qoniqarsiz» baholanadi:<br>- Tanlangan mavu va mehmonxona interyeri borasida umuman ma'lumot va tavsif berilmagan bo'lsa;<br>- Mehmonxona bo'limlari interyerlarini tavsiflayotganda ilmiy asoslardan foydalanilmasa. |

2-ilova

## "MEHMONXONA INTERYERI VA LANDSHAFTI" FANIDAN KURS ISHI MAVZULARI

1. Mehmonxonalar jozibadorligini oshirishda interyer tushunchasining mohiyati
2. Mehmonxona interyeri va landshaftining tarixiy uslublari
3. Xorijiy mamlakatlarda mehmonxona interyeri dizayni: o'ziga xosligi, rivojlanishi, muammolari
4. Mehmonxonaning firmenniy stili yaratilishi va unga bo'lgan asosiy talablar
5. Mehmonxona interyeri va lanshaftini yaratishda ergonomik talablar
6. Mehmonxona nomerlar fondlari va jamoat joylari dizayn-loyihasining yaratilishi
7. Mehmonxona interyerida ranglarni va dekor elementlari qo'llash
8. Mehmonxonani yoritish va tozalash xizmatini ko'rsatish uskunalari
9. Mehmonxona nomerlari, jamoat joylari, kafe, barlar va restoranlari uchun mebellarni loyihalashtirish va ishlab chiqishning o'ziga xosligi.
10. Mehmonxonaga oid idish-tovoqlar va to'qimachilik mahsulotlari.
11. Mehmonxonalarda landshaft dizaynining asosiy uslublari.
12. Mehmonxonada fitodizayn.
13. Mehmonxonalar jozibadorligini oshirishda zamonaviy dizayn uslublari
14. Ommaviy madaniyat, sport va dam olish ob'ektlariga qo'yiladigan talablar
15. Hilton mehmonxonalarini loyihalash, qurilish va ta'mirlash standartlari.
16. Uch yulduzli mehmonxona uchun xalqaro talablar.
17. To'rt yulduzli mehmonxona uchun xalqaro talablar.
18. Besh yulduzli mehmonxona uchun xalqaro talablar.
19. Mehmonxona landshaftini yaratishda kichik me'moriy shakllar
20. Mehmonxona interyerida fitodizaynni qo'llash asoslari
21. Yevropa mehmonxonalarida landshaft usulini qo'llashning ahamiyati.
22. Mehmonxonalarni loyihalash, qurish va ta'mirlash bo'yicha Yevropa standarti.
23. Osiyo mehmonxonalari interyeridagi qulaylik.
24. Mehmonxona interyerida Op-art uslubi.
25. Mehmonxona interyerida Pop-art uslubi.
26. Mehmonxona interyerida Hi-tech uslubi.
27. Mehmonxona interyerida minimalizm uslubi.
28. Mehmonxona binolari va sayyohlik majmualarida interyerni tashkil qilish usullari.
29. Osiyo mehmonxonalarida Metabolizm interyer uslubini qo'llashning ahamiyati.
30. Mehmonxona interyerlarida shinamlikni yaratishning ahamiyati.



3-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI**

**TURIZM VA MEHMONXONA XO'JALIGI KAFEDRASI**

**«Mehmonxona interyeri va landshafti» fanidan**

# K U R S  I S H I

**Mavzu:** ______________________________

______________________________________

***Bajardi:*** ______ __________***guruhi talabasi*** ________________
(imzo) (ismi sharifi)

**Kurs ishi himoya qilingan sana "____" _________20__ y.**

**Baho "_____" __________**

***Ilmiy rahbar:*** ________ ________________
(imzo) (ismi sharifi)

***Komissiya a'zolari:*** ________ ________________
(imzo) (ismi sharifi)

________ ________________
(imzo) (ismi sharifi)

**Buxoro 20__ yil**

**4-ilova**

A-4 o'lchamli yozuv qog'ozida kurs ishini yozish
T A R T I B I :

Kurs ishi betlari quyidagicha yozilishi lozim:

Chap tomondan - 30 mm
Yuqoridan - 20 mm
O'ng tomondan - 10 mm
Pastdan - 25 mm

1 ta betda jami 27-28 qator bo'ladi.






**5-ilova**

## TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI


Asosiy adabiyotlar

1. Вильчик Н.П. Архитектура зданий: учебник: - М: инфра-М,2013
2. Калинин В.М., Соколова С.Д., Оценка технического состояния зданий: учебник - М: инфра - М, 2013
3. Калинин В.М., Соколова С.Д., Топилин А.Н. Обследование и испытание конструкций зданий и сооружений: учебник - М: инфра-м,2013
4. Фокин С.В. Системы отопления, вентиляции и кондиционирован ия воздуха: устройство, монтаж и эксплуатация: учебное пособие --М: альфа-м: инфра-м, 2013

**Qo'shimcha adabiyotlar**

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uzbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish boyicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni-03.02.2018 y. № PF-5326
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" qarori-06.02.2018 y., № PQ-3509
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uzbekiston Respublikasi Davlat mulki qomitasining turizmni rivojlantirish boyicha faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari togrisida" qarori -06.02.2018 y., PQ-3510
8. Сербин Е.П. Строительные конструкции:учебное пособие .- М.:Академия, 2013
9. Маилян Л.Р., Лазарев А.Г.: Конструкции зданий и сооружений с элементами статики: учебник - М: инфра-м, 2013
10. Лебедев С.В.: Сварка. Введение в специальность: учебное пособие - М: Альфа - М: инфра - М, 2013

**Internet saytlari**

11. www.interunion.ru - turistik assosiasiyalar sayti
12. www.world-tourism.org - butun jahon turizm tashkiloti sayti
13. www.wttc.org - turizm va sayohat bo'yicha butun jahon kengashi sayti
14. www.travel-library.com - sayohatchilar elektron kutubxonasi